NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-6]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

YOSHLAR EHTIYOJLARINING OSHIB BORISHI VA ULAR MANFAATLARINING O‘ZARO TO‘QNASHUVI

Maqsud N. Kenjayev
Tayanch doktorant, Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi, Toshkent Kimyo texnologiya instituti, O‘zbekiston
kenjayevmaqsud06@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti va globallashuv jarayonlarining zamonaviy yoshlar ehtiyojlari hamda manfaatlariga ko‘rsatayotgan tizimli ta’siri sotsial-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda yoshlar tushunchasining demografik ko‘rsatkichdan tashqari keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy kategoriya ekanligi asoslanib, ehtiyojlarning geometrik progressiyada o‘sib borishi obyektiv qonuniyat sifatida baholanadi. Yoshlar qatlamini ularning sotsial faolligi va manfaatlar yo‘nalishiga ko‘ra faol, passiv hamda uyushmagan guruhlarga toifalash mezonlari o‘rganilgan. Shuningdek, resurslar cheklanganligi sharoitida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnasuvi, differensiatsiya jarayonlari hamda ularni muvozanatlashtirishning beshta innovatsion mexanizmi yoritib berilgan*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, ehtiyojlar transformatsiyasi, manfaatlar to‘qnashuvi, bozor iqtisodiyoti, globallashuv, faol yoshlar, passiv yoshlar, uyushmagan yoshlar, sotsial differensiatsiya, innovatsion mexanizmlar.*

РОСТ ПОТРЕБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ И КОНФЛИКТ ИНТЕРЕСОВ

Аннотация. *В этой статье анализируется системное влияние рыночной экономики и процессов глобализации на потребности и интересы современной молодежи. Исходя из того, что понятие молодежи является комплексной социально-политической категорией наряду с демографическим показателем, геометрический рост потребностей оценивается как объективный закон. Были изучены критерии классификации молодежного слоя на активные, пассивные и неорганизованные группы на основе их социальной активности и интересов. Также выделяются конфликты интересов, процессы дифференцировки и пять инновационных механизмов их балансировки в контексте ограничений ресурсов*

Ключевые слова: *молодёжь, трансформация потребностей, конфликты интересов, рыночная экономика, глобализация, активная молодёжь, пассивная молодёжь, неорганизованная молодёжь, социальная дифференциация, инновационные механизмы.*

INCREASING YOUTH NEEDS AND CONFLICT OF INTERESTS

Annotation. *This article analyzes the systemic impact of market economy and globalization processes on the needs and interests of modern youth. Based on the fact that the concept of youth is a comprehensive socio-political category in addition to a demographic indicator, the geometrical growth of needs is assessed as an objective law. The criteria for categorizing the youth stratum into active, passive and unorganized groups based on their social activity and interests were studied. It also highlights conflicts of interest, differentiation processes and five innovative mechanisms for balancing them in the context of resource constraints*

Keywords: *youth, transformation of needs, conflicts of interest, market economy, globalization, active youth, passive youth, unorganized youth, social differentiation, innovation mechanisms.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda kechayotgan shiddatli globallashuv, axborotlashuv va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar jamiyatning eng dinamik qatlami hisoblangan yoshlar ijtimoiy guruhini ilmiy jihatdan fundamental tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Yoshlar masalasini ilmiy tahlil qilishda uni shunchaki biologik yosh chegaralari yoki demografik ko‘rsatkichlar bilan cheklash metodologik jihatdan yetarli emas va kutilgan ilmiy natijani bermaydi. Milliy statistika qo‘mitasining aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha 2026-yilda e’lon qilingan dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, Mamlakatimizda 14–30 yosh oralig‘idagi yoshlar soni 9,7 million kishini, ya’ni umumiy aholining qariyb to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. [11; 2-b.] Bugungi kunda “yoshlar” tushunchasi demografik ko‘rsatkichdan ko‘ra kengroq mazmunga ega bo‘lib, u ijtimoiy tuzilma ichida alohida maqom, o‘tish holati va shakllanayotgan identitetni ifodalaydigan ijtimoiy-siyosiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ularni faqat ma’lum bir yosh oralig‘i bilan emas, balki jamiyatdagi funksional o‘rni,

ijtimoiylashuv jarayoni, qadriyatlar tizimi va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki orqali aniqlash falsafiy va siyosiy jihatdan ko‘proq asoslidir. Xalqaro miqyosda ham, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi UNICEF hisobotlarida yosh avlod shunchaki jarayonlar ishtirokchisi emas, balki jamiyatni o‘zgartiruvchi raqamli va innovatsion kuch sifatida e’tirof etiladi.[7]

Bugungi dunyoda kechayotgan jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiy etgani va moddiy-ma’naviy farovonlik oshgani sayin, shaxsning, xususan yosh avlodning ehtiyojlari ham chiziqli tarzda emas, balki geometrik progressiyada murakkablashib boradi. Davlat va uning institutlari jamiyatdagi barcha o‘sib borayotgan ehtiyojlarni bir tomonlama moddiy dasturlar orqali to‘liq qondira olmasligi ma’lum bo‘lib bormoqda. Mazkur obyektiv reallikni va ehtiyojlar o‘sishining jamiyat rivojlanishidagi o‘rnini xalqaro andozalarda tahlil qilsak, yoshlarning ehtiyojlarini qondirish bevosita ularning iqtisodiy mustaqilligi va huquqiy kafolatlari bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini qonuniy ta’minlashning bosh omili sifatida O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan maxsus qonun xizmat qilmoqda. Ushbu qonuniy hujjatda belgilanganidek: Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari – ochiqlik, shaffoflik, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishidir.[1] Demak, ehtiyojlarning muttasil transformatsiyalashuvi va murakkablashishi shunchaki ijtimoiy muammo emas, balki qonuniy asosda tartibga solinishi va davlat tomonidan tizimli ravishda rag‘batlantirilishi lozim bo‘lgan jarayondir.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida yashagan yoshlar guruhlarining manfaatlari va qadriyatlar tizimi o‘rtasida juda katta tub farqlar va uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Sho‘rolar davridagi qaramlik tizimi sharoitida yoshlarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligi qat’iy markazlashtirilgan g‘oyaviy qolipga solingan edi. Ular ongi va qalbiga yoshlar qobiliyatiga yarasha mehnat qilishi va belgilangan mezon asosida moddiy boyliklardan bahramand bo‘lishi kerakligi haqidagi qarashlar majburan singdirilgan. Eng asosiysi, u davrda shaxsiy yoki xususiy mulkka egalik qilish mutloq man etilgan va xususiy tashabbus ko‘rsatishga intilganlar tizim dushmanlari sifatida baholangan. Bunday mafkuraviy tazyiq sharoitida yoshlarning shaxsiy manfaatlari butunlay davlat manfaatlariga bo‘ysundirilgan bo‘lib, ularning o‘zlari uchun emas, balki faqat davlat apparati uchun yashashi va ishlashi talab etilgan. Natijada subyektiv tashabbuskorlik so‘ndirilgan va faqat buyruqlarni bajarishga moslashgan loqayd avlod shakllangan edi.

1991-yilda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizim tubdan o‘zgardi va bu yoshlar dunyoqarashida ham chinakam inqilobiy transformatsiyani yuzaga keltirdi. Mustaqillik yillariga kelibgina yoshlarning xususiy mulkka egalik qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish va shaxsiy kapitalini shakllantirish borasidagi manfaatlari qonuniy va amaliy jihatdan shakllandi. Bozor munosabatlarining qaror topishi bilan yoshlar hayotiy farovonlik faqat va faqat o‘zlarining intellektual va jismoniy mehnatiga, tashabbuskorligiga bog‘liq ekanini anglab yetdilar. Bugungi kunda iqtisodiy omillar ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi asosiy vositaga aylangan bir paytda, mamlakatimiz yoshlarining har biri xususiy mulkka egalik qilish, yuksak daromad topish va shaxsiy salohiyatini erkin namoyon etish motiviga ega. Bu holat, bir tomondan, yoshlarning farovon hayot kechirishi uchun harakat qiladigan xususiy manfaatlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ular yaratayotgan innovatsiyalar orqali mamlakatning umumiy iqtisodiy qudratini yuksaltirishga xizmat qiladigan umumiy manfaatlarni o‘zida aks ettiradi. Jahon bankining tarkibiy islohotlar tahlilida ham erkin bozor tizimida xususiy sektor hamda yosh tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikning bosh omili sifatida qayd etilgan.[8]

XXI asr yosh avlodining ehtiyojlari qamrovi nihoyatda keng va ko‘p qatlamlidir. Bu zamonning shiddat bilan o‘zgarishi, fan-texnika taraqqiyoti hamda axborot makonining ochiqligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Biroq, ehtiyojlarning bunday cheksiz o‘sib borishi o‘z-o‘zidan bir qator tizimli ziddiyatlar va murakkab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bugungi yoshlar o‘zlaridan oldingi ajdodlariga qaraganda jahonda kechayotgan geosiyosiy ziddiyatlar, mafkuraviy poligonlar va iqtisodiy inqirozlar girdobida yashashga majbur bo‘lmoqdalar. Globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlari milliy zaminlardan uzilib, g‘arb sivilizatsiyasi ta’sirida shakllangan va bugun qadriyat darajasiga ko‘tarilayotgan yuzaki “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolish xavfi nihoyatda yuqori.

Siyosiy madaniyati va hayotiy tajribasi yetarli bo‘lmagan ayrim yoshlar dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy o‘yinlar va axborot manipulyatsiyalarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetmasdan, yot g‘oyalar va g‘arazli diniy-siyosiy oqimlar ta’siriga osongina tushib qolmoqdalar. Bu esa ularning o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida ona Vatan, xalq va oila manfaatlarini e’tiborsiz qoldirishiga olib kelishi mumkin. Demak, islohotlar izchil davom etayotgan hozirgi sharoitda yoshlar ehtiyojlarining o‘sishi, ularning manfaatlari transformatsiyalashuvi hamda bu jarayonda vujudga kelayotgan ziddiyatli tendensiyalarni tizimli ravishda ilmiy o‘rganish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Metodlar

Yoshlar ehtiyojlarining oshib borishi va ular manfaatlarining o‘zaro to‘qnashuvi muammosini tizimli tadqiq etish tizimli-funksional usulini qo‘llashni taqozo etadi. Ushbu tadqiqot metodologiyasining asosi subyektlarning real ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni hamda ularning individual ehtiyojlari davlat va jamiyat resurslari bilan qanchalik muvofiqlashganini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan.

Mazkur masalaning metodologik poydevorini va yoshlar manfaatlarining jamiyat hayotidagi transformatsiyasini tahlil qilishda qonunchilik bazasi hamda xalqaro tashkilotlarning sotsiologik yondashuvlaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunida yoshlar manfaatlarini himoya qilish sotsial tadqiqotlarning huquqiy obyekti sifatida mustahkamlab qo‘yilgan.

Taqdim etilgan ilmiy konsepsiyaga muvofiq, bugungi kunda yoshlar ehtiyojlari va manfaatlarining differensiasiyasi (tabaqalanishi) ularning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy faolligi va iqtisodiy munosabatlarga kirishish darajasiga ko‘ra belgilanadi. Metodologik jihatdan yoshlar qatlami o‘z manfaatlari va ehtiyojlarining yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi uchta asosiy toifaga ajratiladi:

1. **Faol yoshlar toifasi.** Ushbu guruhga mansub yoshlar bozor iqtisodiyoti qoidalariga tez moslashadigan, yuqori intellektual yoki jismoniy salohiyatga ega, shaxsiy va xususiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan qatlamdir. Ular ijtimoiy resurslar va imkoniyatlardan unumli foydalanishga intiladi.
2. **Passiv yoshlar toifasi.** Bu guruh vakillari jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy islohotlarga nisbatan loqayd, o‘z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda faqat tayyor sharoitlarni kutuvchi yoki boqimandalik kayfiyatiga moyil qatlam hisoblanadi.
3. **Uyushmagan yoshlar toifasi.** Hech qaysi rasmiy tashkilot yoki tizimli mehnat munosabatlariga birikmagan, bandligi ta’minlanmagan, aniq ijtimoiy va ma’naviy pozitsiyasiga ega bo‘lmagan qatlamdir. Mazkur toifa ichida ehtiyojlarning qondirilmasligi va manfaatlar to‘qnashuvi eng yuqori inqirozlarni keltirib chiqaradi.

Ushbu toifalarni va ularning o‘rtasidagi manfaatlarning o‘zaro to‘qnashuvini metodologik jihatdan tushunish uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (UNDP) hisobotlariga tayanish lozim. Hisobotlarda qayd etilishicha, yoshlarning iqtisodiy hayotga integratsiyalashuvi hamda sotsial himoyasi tizimli metodologiya asosida o‘rganilishi zarur, chunki bandlik va sotsial statusning mavjud emasligi yoshlar o‘rtasida marginallashuvni keltirib chiqaradi.[9]

Yoshlar ehtiyojlarining oshib borishi jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi qanday yuzaga kelishini tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy metod alohida ahamiyatga ega. Sobiq sho‘rolar ittifoqi davrida yoshlarning ehtiyojlari majburiy tarzda bir qolipga solingan bo‘lsa, erkin bozor tizimida ehtiyojlar individuallashdi. Bugun davlat tomonidan yoshlarga keng imkoniyatlar berilayotgan bo‘lsa-da, subyektiv ehtiyojlarning geometrik progressiyada o‘sishi resurslar cheklanganligi sharoitida muayyan ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, Mehnat bozoridagi raqobat va yoshlarning malaka darajasi o‘rtasidagi nomutanosiblik global muammolardan biridir. Yoshlarning iqtisodiy manfaatlari va yuqori daromad topish istagi mehnat bozoridagi real taklif bilan to‘qnashganda ijtimoiy umidsizlikni yuzaga keltirishi mumkin.[10] Metodologik jihatdan ushbu muammoni o‘rganish maqolaning natijalar qismida ehtiyojlarning o‘sib borish korrelyatsiyasini aniq ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Natijalar

Bozor iqtisodiyotining fundamental qoidalari amal qilayotgan hozirgi sharoitda yoshlar ehtiyojlarining geometrik progressiyada o‘sib borishi va ularning moddiy-resurs imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik jiddiy sotsial differensiatsiyani (tabaqalanishni) keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkin raqobat muhiti bir tomondan yuksak salohiyatli yoshlarning iqtisodiy manfaatlarini to‘liq ta’minlashga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bozor munosabatlariga moslasha olmagan muayyan qatlam o‘rtasida marginallashuv xavfini oshirmoqda. Bozor munosabatlarining o‘ziga xos talablari yoshlar hayotida turlicha manzarani – raqobatbardoshlik va o‘z navbatida ishsizlik muammosini yuzaga keltirmoqda.

Professor Sarvar Otamuratov o‘zining ilmiy tadqiqotlarida yoshlar ehtiyojlarining o‘sishi va ularning jamiyat hayotidagi o‘rnini tahlil qilib, muhim natijalarni taqdim etadi. Olimning xulosalariga ko‘ra, bugungi yoshlarni sotsial faolligi va manfaatlar yo‘nalishiga ko‘ra toifalarga ajratish mumkin. Professor Sarvar Otamuratov o‘z ilmiy yondashuvida ta’kidlaganidek, Yoshlar qatlamini jamiyatdagi faollik darajasi, dunyoqarashi va maqsadlariga binoan faol, passiv hamda uyushmagan yoshlar guruhlariga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. [2;100-b.]Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, har bir guruhning ehtiyoj darajasi turlicha bo‘lib, ularning o‘rtasidagi nomutanosiblik manfaatlar to‘qnashuviga zamin yaratadi.

Yoshlar o‘rtasida passivlik va uyushmaganlik kayfiyatining paydo bo‘lishi shunchaki subyektiv xususiyat emas, balki chuqur sotsial-pedagogik, iqtisodiy va oilaviy omillar silsilasidir. Uyushmagan yoshlar qatlamining vujudga kelishi va ularning ehtiyojlari qondirilmasligi muammosini tahlil qilgan professor M.Bekmurodov muhim konseptual xulosani ilgari suradi. Olimning fikricha: Uyushmagan yoshlar sferasining kengayishi jamiyatda sotsial passivlikni oshiribgina qolmay, balki ijtimoiy institutlar bilan yosh avlod o‘rtasidagi aloqalarning uzilishiga ham olib keladi.[3;3-b.] Bunday salbiy sotsial tendensiyalarning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy determinat qonuniyatlar va ularning sabablari aniqlandi:

1. **Oilaviy munosabatlar va tarbiyadagi nuqsonlar.** Oilada yosh avlodning mustaqil fikrlashi, mas’uliyatni his qilishi va tashabbus ko‘rsatish qobiliyatining bo‘g‘ilishi ularni tayyor sharoitga moslashgan boqimandaga aylantirmoqda.

Oilaviy munosabatlar sotsiologiyasini tadqiq etgan T.Narbayevaning ilmiy xulosalarida qayd etilishicha: Oila muhitida bolaning individual ehtiyojlarini to‘g‘ri yo‘naltirmaslik va ma’naviy boshliqlarning mavjudligi keyinchalik yoshlar o‘rtasida xulq-atvor og‘ishi va ijtimoiy loqaydlikni keltirib chiqaradi.[4;130-b.]

2. **Ta’lim tizimidagi sustlik va amaliyot uzilishi.** Zamonaviy ta’lim muassasalarida berilayotgan bilimlar erkin bozor raqobati talablariga to‘liq javob bermasligi oqibatida yoshlarning yuqori daromadli ish topish manfaatlari real imkoniyatlar bilan to‘qnashmoqda va bu ularni passiv toifaga o‘tkazmoqda.

3. **Hududiy va sotsial-iqtisodiy farqlar.** Qishloq joylarida istiqomat qilayotgan yoshlarning madaniy, ma’naviy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi shahar yoshlariga nisbatan manfaatlar nomutanosibligini va ichki sotsial ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Yoshlar ehtiyojlarining muttasil oshib borishi sharoitida, davlat institutlari va jamoat tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar barcha subyektiv ehtiyojlarni bir vaqtda qondira olmaydi. Natijada yoshlarning real hayotiy kutishlari bilan amaliy voqelik o‘rtasida tizimli uzilish yuzaga keladi. Passiv va uyushmagan yoshlar o‘z muammolarining yechimini shaxsiy harakat va intellektual mehnatdan ko‘ra ko‘proq tashqi sotsial institutlar yoki davlat zimmasiga yuklashga moyildirlar. Bozor iqtisodiyoti davrida xususiy mulkchilik va iqtisodiy mustaqillikka intilish motivatsiyasi yoshlarni faollikka undasa-da, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar tufayli yoshlar guruhlarining o‘zaro manfaatlar to‘qnashuvi yaqqol natija sifatida ko‘zga tashlanadi.

Munozara

Yoshlar ehtiyojlarining muttasil oshib borishi jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni ikki guruhga ya’ni **obyektiv** va **subyektiv** omillarga ajratish lozim. Obyektiv omillar, jamiyatdagi moddiy va ijtimoiy resurslarning cheklanganligi, iqtisodiy tengsizlik, bozor raqobati hamda shahar va qishloq infratuzilmasi o‘rtasidagi hududiy farqlarni o‘z ichiga oladi. Bu omillar yoshlarning ehtiyojlarini bir vaqtda va teng darajada qondirish imkonini bermaydi. Subyektiv omillar, yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyati, huquqiy ongi, ma’naviy dunyosi, hayotiy qadriyatlari hamda muayyan guruhlarga xos bo‘lgan emotsional radikallik bilan bevosita bog‘liqdir.

Mazkur ziddiyatli jarayonlarni va globallashuv davrida yoshlar ongida kechayotgan transformatsiyalarni tahlil qilgan tadqiqotchi I.Muxitdinova muhim mafkuraviy va sotsial jihatlarga e’tibor qaratadi. Olimaning ta’kidlashicha Globallashuv sharoitida yoshlar subyektiv ehtiyojlarining milliy qadriyatlar zaminidan uzilib, yuzaki ommaviy madaniyat ta’sirida shakllanishi sotsial guruhlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini mafkuraviy darajaga olib chiqadi.[5] Demak, yoshlarning siyosiy-huquqiy ongi va ma’naviy immunitetini oshirmasdan turib, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi moddiy va ma’naviy ehtiyojlar muvozanatini ta’minlash qiyin kechadi.

Yoshlar ehtiyojlarining oshib borishi fonida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvini yumshatish va muvozanatlashtirish uchun taqdim etilgan ilmiy konsepsiya doirasida quyidagi 5 ta innovatsion yondashuv (mexanizm) taklif etiladi:

1. **Yoshlar dunyoqarashi va ongini transformatsiya qilish.** Yoshlarni tayyor sotsial yordam yoki boqimandalik kayfiyatidan voz kechib, shaxsiy tashabbuskorlik, intellektual mehnat va qonuniy tadbirkorlik orqali o‘z ehtiyojlarini mustaqil qondirish ko‘nikmasiga yo‘naltirish.

2. **Innovatsion va tizimli bandlik tizimini yaratish.** Faqat an’anaviy ish o‘rinlari emas, balki raqamli iqtisodiyot, frilans va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali passiv va uyushmagan yoshlarni faol toifaga o‘tkazish.

3. **“Oila–maktab–OTM–jamoatchilik” integratsiyalashgan zanjiri.** Oiladagi tarbiyaviy bo‘shliqlarni to‘ldirish va ta’lim muassasalarida yoshlarga bozor munosabatlariga moslashish darslarini tizimli o‘rgatish.

4. **Ijtimoiy ehtiyojlarni bashoratlash (Prognostika) mexanizmi.** Davlat va jamoat institutlari tomonidan yoshlar ehtiyojlarining o‘sish tendensiyalarini oldindan sotsiologik tahlillar yordamida bashorat qilish va resurslarni shunga muvofiq taqsimlash.

5. **Konstruktiv muloqot va sotsial inklyuzivlik.** Uyushmagan yoshlar sferasini qisqartirish uchun ularni davlat dasturlari va jamoat ishlariga keng jalb etish, ularning fikr va takliflarini doimiy ravishda eshitish tizimini takomillashtirish

Conclusion

Ushbu ish doirasida “Yoshlar ehtiyojlarining oshib borishi va ular manfaatlarining o‘zaro to‘qnashuvi” muammosi atroflicha tahlil qilindi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ehtiyojlarning geometrik progressiyada o‘sib borishi obyektiv qonuniyat bo‘lib, u mamlakat va shaxs taraqqiyotini harakatga keltiruvchi manbadir. Biroq, ushbu jarayonda yuzaga keladigan manfaatlar differensiatsiyasi yoshlarni faol, passiv va uyushmagan toifalarga ajratib yubormoqda. Muammoni hal qilish yoshlarning subyektiv ehtiyojlarini cheklashda emas, balki ularni davlatning strategik maqsadlari bilan innovatsion mexanizmlar orqali muvozanatlashtirishda hamda yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2016). Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida O‘RQ-406. https://lex.uz/docs/-3026246

2. Отамуратов, С. (2021). Янгиланаётган Узбекистон ижтимоий-инноватсион жараёнларида ёшлар фаолияти. Тошкент: Фан ва технологиялар. B.100

3. Bekmurodov M. Uyushmagan yoshlar ijtimoiy hodisaning ilmiy-nazariy asoslari. “Yoshlar kelajak bunyodkori shiori ostidagi uyushmagan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarda samaradorlikka erishish”ning ilmiy-amaliy masalalariga bag‘ishlangan respublika konferensiyasi. T. “Yangi asr avlodi”, 2017.B.3

4. T.K. Narbayeva O‘zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli. Satsiodiskurstiv tahlil. Monografiya. T.: “Tasvir”, 2020. 130-b.

5. Muxitdinova I. Globallashuv sharoitida yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish masalalari // Science,

6. Society and Political Management Ecosystem. – 2025. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/sspme/article/view/120771 (murojaat qilingan sana: 09.06.2026).

7. UNICEF. (2023). Yoshlarning ovozi va harakatlari barcha uchun yanada yaxshi kelajakni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/yoshlarning-ovozi-va-harakatlari-barcha-uchun-yanada-yaxshi-kelajakni

8. Jahon Banki. (2022). O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari va tarkibiy o‘zgarishlar bo‘yicha hisobot. https://documents1.worldbank.org/curated/en/099449406152214754/txt/IDU0c4d508cd0686d04d500b0440b7819442dbd3.txt

9. UNDP. (2024). National human development report 2024: Youth in Uzbekistan. United Nations Development Programme. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/national-human-development-report-2024

10. ILO. (2024). Global employment trends for youth 2024: Stark regional differences in youth labor market success. International Labour Organization. https://www.ilo.org/resource/article/global-employment-trends-youth-2024-stark-regional-differences-youth

11. Sputniknews.uz https://oz.sputniknews.uz/20260710/ozbekiston-aholi-58956922.html